

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOV JAVLON KO'ZIYEVICH

**OLIY TA'LIM QAMROVINING KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya

AVTOREFERATI

Urganch - 2023

UDK: 330.115:330.59(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Karimov Javlon Ko'ziyevich

Oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini ekonometrik baholash.....3

Каримов Жавлон Кузиевич

Эконометрическая оценка влияния охвата высшего образования на сокращение бедности33

Karimov Javlon Koziyevich

An econometric assessment of the impact of Higher education coverage on poverty reduction.....63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works67

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOV JAVLON KO‘ZIYEVICH

**OLIY TA‘LIM QAMROVINING KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA‘SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya

AVTOREFERATI

Urganch – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1994 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Ilyos Sultanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Doschanov Tangirbergen Doschanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdug'aniyev Otabek Allajonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00, faks.: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998 62) 224-67-00; Faks: (99862) 224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil "____" _____ dagi № ____ raqamli reestr bayonnomasi).

U.R.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.v.b, i.f.d.dotsent (DSc).

T.J.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD..

B.Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda asosiy ta'lim kambag'allikni kamaytirish uchun juda zarur deb hisoblanib, o'rta va oliy ta'lim uzoq muddatli o'sish sur'atlari hamda daromad darajasini oshirishda muhimroq ekanligi asoslangan. "Birlashgan millatlar tashkilotining 2015-2030-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish bo'yicha strategiyasida sifatli ta'lim olish imkoniyatini asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan"¹. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni jadal rivojlantirish oliy ta'lim qamrovini yana kengaytirish asosida kambag'allikni qisqartirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda oliy talim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ahamiyati, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha muvaffaqiyatli strategiya ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasasi raqobatdoshligini oshirish hamda halqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oliy ta'lim muassasalari tomonidan jamiyatga yetuk mutaxassislarni yetkazib berish bilan birga qo'shimcha daromad topish imkoniyatlari yaratish hamda tayyorlanayotgan mutaxassislarning mustaqil qaror qabul qilish va faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, oliy ma'lumotli yetuk qadrlar bilan ta'minlash orqali jamiyatda kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirishning yangicha yo'llarini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Hususan "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"² qarorda belgilangan ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligini oshirish, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda aholi ehtiyojmand qatlamining tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan vazifalarini belgilanganligi mazkur tadqiqotning dolzarb masalaga qaratilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-son "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi farmonlari, 2022-yil 29-apreldagi PQ-230-son "Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 154-son "2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks

¹ A new approach to the fight against poverty: research methods, results, lessons for Ukraine. 2019. URL: <http://files.nas.gov.ua/PublicMessages/Documents/0/2019/12/191227122113753-3723.pdf>.

² O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 4 yillik strategiya ishlab chiqilmoqda "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasi e'lon qilindi. <https://yuz.uz/news/ozbekistonda-kambag'allikni-qisqartirish-boyicha-4-yillik-strategiya-ishlab-chiqilmoqda>

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush farovonligini oshirish va istiqbollarni baholash masalalari ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan: xorijiy olimlardan R.Adams, Lin, H.Bhanumurthy, H.Mitra, Arndt James, Arndt Simler, N.Birdsall, J.L.Londono, S.Arjun, H.Rights, G.S.Fields³, MDH davlatlari mutaxassis olimlaridan N.V.Kovalenko, O.V.Garashuk, V.I.Kutsenko, I.Ansoff, A.L.Gaponenko, YU.V.Yakovtza, V.N.Leksin, A.N.Shvetsov⁴ va boshqalar nazariy tadqiqot olib borganlar. O‘zbek iqtisodchi olimlaridan O.X.Maxmudov, K.P.Uzakov, M.H.Abulqosimov, T.M.Axmedov, R.R.Xasanov, G.A.Alimova, I.S.Abdullayev⁵lar

³ Adams, R (2002) Economic Growth, Inequality and Poverty: Findings from a New Data Set, Policy Research Working Paper 2972, World Bank, February 2002, and Ravallion, M and S Chen (1997) ‘What Can New Survey Data Tell Us about Recent Changes in Distribution and Poverty?’ World Bank Economic Review, 11(2): 357-82.; Lin (2003), Economic Growth, Income Inequality, and Poverty Reduction in People's Republic of China, Asian Development Review, vol. 20, no. 2, 2003, pp. 105-24.; H.Bhanumurthy and H.Mitra (2004), Economic Growth, Poverty, and Inequality in Indian States in the Pre-reform and Reform Periods, Asian Development Review, vol. 21, no. 2, 2004, pp. 79-99.; Arndt, James, and Simler (2006), Has Economic Growth in Mozambique Been Pro-Poor?, Food Consumption and Nutrition Division Discussion Paper 202.; Birdsall, N. and J.L. Londono (1997), ‘Asset Inequality Matters: An Assessment of the World Bank’s Approach to Poverty Reduction’, American Economic Review, 87(2), AEA Papers and Proceedings: 32-37.; Sengupta Arjun, Human Rights to Development, Report of the Independent Expert on the Protection of Human Rights to Development [www.unhcr.ch/Huridocda/Huridoca.nsf/0/78e0cb0e6e6ea624c1256961004f7a98/\\$FILE.pdf](http://www.unhcr.ch/Huridocda/Huridoca.nsf/0/78e0cb0e6e6ea624c1256961004f7a98/$FILE.pdf).; Fields, G. S. (1989) “Changes in Poverty and Inequality in the Developing Countries”, mimeographed paper.;

⁴ Kovalenko NV Poverty as a socio-economic category. State building. 2007. № 2. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/DeBu_2007_2_10.; Гарашук О. В., Куценко В. І. Контент фахової освіти: аналіз, оцінка, перспективи. Економічний аналіз: зб. наук. праць. Тернопіль: «Економічна думка». 2016. Том 24. № 1. С. 7–15.; И. Ансофф Стратегическое управление. М.: Экономика, 1989, 519 с.; Гапоненко А.Л. Стратегия социально-экономического развития: страна, регион, город. -М.: Изд-во РАГС, 2001.- 224 с.; Парсаданов Г.А. Планирование и прогнозирование социально-экономической системы страны (теоретико-методологические аспекты): Учебное пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.- 223 с.; Ю.В.Яковца. Теоретические основы и модели долгосрочного макроэкономического прогнозирования /под ред. - М.: МФК, 2004.; Лексин В.Н., Швецов А.Н. Государство и регионы. Теория и практика государственного регулирования территориального развития. -М., 2000.; К.П.Узаков Камбағалликни қисқартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-579-594.;

⁵ О.Х.Махмудов Оилаларда камбағалликни қисқартириш омиллари “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. <http://www.iqtisodiyot.tsue.uz/267-276> б.; К.П.Узаков Камбағалликни қисқартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-579-594.; М.Х.Абулқосимов Камбағалликка қарши кураш -шахс иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим йўналиши ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 2(134) 134-144 б.; Т.М.Ахмедов, Р.Р.Хасанов, Г.А.Алимова, Ўзбекистонда камбағалликни аниқлашнинг миллий мезонлари Прогнозлаштириш ва макроиқтисодий тадқиқотлар институти <https://elibrary.ru/>.; Абдуллаев И.С. Прогнозирование социально-экономического развития региона // Монография, Ташкент издательство Фан, 2009 г. -126 с.

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyoti oilalarda kambag‘allikni qisqartirish hamda bandligini oshirish masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

Ammo ushbu tadqiqotlarda aynan oliy ta‘lim qamrovining kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sirini, ularining rivojlanishini muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi hamda hududlar salohiyatini ekonometrik baholash ishlari tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Xotin-qizlarning ish bilan bandligini ta‘minlash uchun Kraudfanding platformasi va STEM dasturini yaratish baholash indikatorlarini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha (2022-2023-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta‘lim qamrovining kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sirini ekonometrik baholashni takomillashtirish va samarali yo‘llari (mexanizmlari) bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kambag‘allikni qisqartirish va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi aloqadorlikning ilmiy-nazariy yondashuvlarini o‘rganish;

kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirining metodologik asoslarini aniqlash;

Xorazm viloyatida oliy ta‘lim qamrovining kambag‘allikni qisqartirishga ta‘siri tahlilini amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida kambag‘allik va iqtisodiy o‘shish tendensiyalarini ekonometrik modelini ishlab chiqish;

iqtisodiy o‘shish va oliy ta‘lim qamrovini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirishni takomillashtirish;

oliy ta‘lim qamrovining kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sirini baholashni takomillashtirish istiqbollarini prognoz qilish.

Tadqiqot obyekti bo‘lib, Xorazm viloyati va undagi oliy ta‘lim muassasalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta‘lim qamrovining kambag‘allikni qisqartirishga ta‘sirini ekonometrik baholash va uni qisqartirish strategiyalarini takomillashtirish istiqbollarini ko‘p variantli prognozlash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tanlanma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va aniqlangan model yordamida prognozlash usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kambag‘allik ijtimoiy nomutanosiblikning mutlaq, nisbiy, standart va gumanistik mohiyati bo‘yicha aniqlangan sabablariga ko‘ra jamiyatdagi o‘rtacha me‘yorlar, iste‘mol odatlarini hisobga oluvchi daromadlar va xarajatlarni taqsimlash bo‘yicha yondoshuvi taklif etilgan;

aholining kambag'allik darajasini oliy ta'lim qamroviga ko'ra
 $(Y_r = \frac{X_2^{0,077} \cdot X_3^{2,13}}{X_1^{0,67} \cdot X_4^{0,2672} \cdot X_5^{0,1} \cdot e^{1,51}})$ va oliy ta'lim bitiruvchilariga ko'ra
 $(Y_{r2} = \frac{X_1^{1,22} \cdot X_2^{0,008}}{X_3^{0,75} \cdot X_4^{0,44} \cdot X_5^{0,451} \cdot e^{6,23}})$ ssenariylari bo'yicha qisqartirish modellari ishlab
chiqilgan;

iqtisodiy o'sish va oliy ta'lim qamrovini oshirishning stoxastik ($\alpha > 1$ учун $P_{\alpha-1} - P_{\alpha} > 0$ ekanligiga asoslanib) instrumentlari yordamida kambag'allik darajasini baholashning takomillashtirilgan modeli natijalari bo'yicha kambag'allik darajasini qisqartirishda ta'lim siyosatini optimallashtirish taklifi asoslangan;

kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy o'sish va oliy ta'lim qamrovi va bitiruvchilariga asoslangan ssenariyli 2022-2027-yillar uchun ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyati aholining kambag'allik darajasini oliy ta'limga qamrov va bitiruvchilarga bog'liq holda ssenariylari bo'yicha qisqartirish modellari ishlab chiqilgan;

Mavjudlik, ishonch, oshkoralik, keng qamrovlilik, moslashuvchanlik va muvozanat tamoyillari asosida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ta'lim siyosatini optimallashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mas'ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududlarning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini iqtisodiy-statistik usullarda ilmiy tadqiq etish, ko'p omilli prognozlash variantlarini ishlab chiqish hamda oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini baholashda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlarda, xususan Xorazm viloyati hududlarida kambag'allikni kamaytirish, viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqilishida hamda "Iqtisodiy xavfsizlik", "Statistika asoslari", "Ekonometrika", "Aholi turmush darajasini modellashtirish" kabi fanlardan o'quv-uslubiy qo'llanma va keys-stadilar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini ekonometrik baholash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

kambag'allik ijtimoiy nomutanosiblikning mutlaq, nisbiy, standart tushunchalari va gumanistik mohiyati bo'yicha aniqlangan sabablariga ko'ra jamiyatdagi o'rtacha me'yorlar, iste'mol odatlarini hisobga oluvchi daromadlar va xarajatlarni taqsimlash

asosidagi yondoshuvi bo'yicha taklif Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2022-yil 14-fevraldagi "Viloyatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning muhim va dolzarb masalalari" hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" asosida 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi VI-42-21-12-0-K/22 son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyat hokimligi mahkamasining 2022-yil 7-sentyabrdagi 10-6784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif Xorazm viloyati aholisi o'rtasida kambag'allikni mutlaq, nisbiy, standart va gumanistik ko'rinishi sifatida guruhlariga ajratish asosida ularning har biri yo'nalishi bo'yicha alohida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar aniqlik darajasini yanada oshirishga xizmat qilgan;

aholining kambag'allik darajasini oliy ta'lim qamroviga ko'ra

$$(Y_r = \frac{X_2^{0,077} \cdot X_3^{2,13}}{X_1^{0,67} \cdot X_4^{0,2672} \cdot X_5^{0,1} \cdot e^{1,51}})$$

va oliy ta'lim bitiruvchilarga ko'ra

$$(Y_{r2} = \frac{X_1^{1,22} \cdot X_2^{0,008}}{X_3^{0,75} \cdot X_4^{0,44} \cdot X_5^{0,451} \cdot e^{6,23}})$$

ssenariylari bo'yicha qisqartirish modellari bo'yicha

taklifi Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2022-yil 14-fevraldagi "Viloyatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning muhim va dolzarb masalalari" hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" asosida 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi VI-42-21-12-0-K/22 son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyat hokimligi mahkamasining 2022-yil 7-sentyabrdagi 10-6784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif "5232200-Ekonometrika" ta'lim yo'nalishining "Aholining turmush darajasini modellashtirish" fani dasturi ishlab chiqishda foydalanilgan va Xorazm viloyati aholisi o'rtasida oliy ta'limga qamrovini 1,0 %ga oshirilsa, kam ta'minlangan aholi ulushini 0,6 foizga kamaytirishga imkon bergan;

iqtisodiy o'sish va oliy ta'lim qamrovini oshirishning stoxastik ($\alpha > 1$ учун $P_{\alpha-1} - P_{\alpha} > 0$ ekanligiga asoslanib) instrumentlari yordamida kambag'allik darajasini baholashning takomillashtirilgan modeli natijalari bo'yicha kambag'allik darajasini qisqartirish taklifi Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2022-yil 14-fevraldagi "Viloyatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning muhim va dolzarb masalalari" hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" asosida 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi VI-42-21-12-0-K/22 son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyat hokimligi mahkamasining 2022-yil 7-sentyabrdagi 10-6784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va aholi jon boshiga umumiy real daromadni, 1,0 mln. so'mga oshirilsa, Xorazm viloyati aholisining kambag'allik darajasi 0.07 % va 0.4 %ga qisqartirishning qo'shimcha imkoniyatlari yaratilgan;

kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy o'sish va oliy ta'lim qamrovi va bitiruvchilariga asoslangan ssenariyli 2022-2027-yillar uchun ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklifi Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining 2022-yil 10-noyabrdagi "Xorazm viloyatidagi aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi dolzarb muammolarni bartaraf etish orqali aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi VI-54-152-

12-0-K/22-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyat hokimligi mahkamasining 2022-yil 7-sentyabrdagi 10-6784-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri bo'yicha eng muhim indikatorlari asosida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 1 ta xorijiy jurnalda ilmiy maqola, milliy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini baholashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqadorlikning ilmiy-nazariy yondashuvlari, kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirining metodologik asoslari hamda kambag'allikni qisqartirishda inson taraqqiyotining ta'siri va uning xorijiy tajribasi to'g'risida bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikning paydo bo'lishi bilan bog'liq kambag'allik muammolari “kambag'allik” atamasining ma'nosini, aholining turli qatlamlarini kambag'allar deb tasniflashning yagona nisbiy mezonini belgilab beruvchi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmonini qabul qilinganidan keyin rasmiy e'tirofga sazovor bo'ldi va 2020-yilgacha bo'lgan davrda asosiy kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqladi va uni qisqartirish yo'nalishlari o'rganila boshlandi. Kambag'allik tasnifining xilma-xilligiga qaramay, u BMT hujjatlarida eng ahamiyatli bo'lib, uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, past kasbiy tayyorgarlik, normal hayotning iqtisodiy bazasidan mahrum bo'lish (toza ichimlik suvi, tibbiy xizmatlar, sifatli ovqatlanish) va jamoat hayotidan chetlashtirish kabi to'rtta asosiy ko'rsatkichi ta'kidlanadi.



1-rasm. Kambag'allik sabablarining konseptual xarakteristikalar⁶

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, Covid-19 pandemiyasi dunyo iqtisodiyotida qashshoqlik tendensiyasini misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keldi, bu inflyatsiyaning o'sishi va Ukraina-Rossiya o'rtasidagi urush oqibatlari tufayli yanada kuchaydi. Bizning taxminimizcha, bu umumiy inqirozlar 2022-yilda pandemiyadan oldingi prognozlarga nisbatan qo'shimcha 75 milliondan 95 milliongacha o'ta qashshoqlikda yashaydigan odamlarni sonini ortishiga olib keladi.

Shunday bo'lsa-da, butun dunyo bo'ylab ko'plab odamlar kun kechirish uchun kurashmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda taxminan 711 million kishi o'ta qashshoqlikda yashagan bo'lib, bu kuniga 1,90 AQSH dollaridan kam daromadga ega bo'lganlarni ifoda etadi. Bu esa dunyo aholisining taxminan 10 foiziga to'g'ri keladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon banki dunyoda qashshoqlikni kamaytirishning asosiy tarafdorlari hisoblanadi. Jahon banki 2030-yilga borib qashshoqlikni dunyo aholisining atiga 3% dan kamrog'iga kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan. Qashshoqlikka qarshi kurashning muqobil usullarini izlash butun jahon hamjamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirgan bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.


Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha jahon amaliyoti shuni ko'rsatdiki, ko'plab mamlakatlar kambag'al aholi tomonidan korxonalar yaratishni moliyalashtirish bo'yicha maxsus strategiyalarni samarali ishlab chiqmoqda. Biroq, bunday

⁶ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

korxonalarining ko'pchiligi faqat davlat tomonidan barqaror moliyaviy yordam bilan ishlaydi va agar moliyalashtirish to'xtatilsa, aksariyat korxonalar o'z faoliyatini to'xtatadi. Bundan tashqari, kam daromadli mamlakatlardagi aksariyat kambag'allar uchun biznes turli sabablarga ko'ra nafaqat arzon, balki jozibador ko'rinmaydi.

Ta'lim sifati kambag'allikni qisqartirish strategiyalarida, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta bosqichlarda birinchi o'rinda turadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish bo'yicha sifatli ta'lim olish imkoniyatini asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Buning uchun kam ta'minlangan oilalarga sifatli ta'lim olish imkoniyatlari bo'yicha huquqiy, moliyaviy va maslahat yordamini ko'rsatishi kerak bo'lgan maxsus tashkilotlarni tashkil etish kerak.

Bundan ko'rinadiki, kambag'allikka qarshi kurashda inson huquqlari alohida ahamiyatga ega. Inson huquqlarining ajralmasligi va o'zaro bog'liqligini hisobga olsak, kambag'allikni bartaraf etishda barcha inson huquqlari muhim ahamiyatga ega. Biroq, ba'zi huquqlar ushbu kontekstda ayniqsa muhim deb hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ko'rsatmalari loyihasi qo'llanmalarida kambag'allikni qisqartirish strategiyalariga inson huquqlari bo'yicha yondashuvlarga muvofiq, kambag'allikni qisqartirish siyosatini rejalashtirishda quyidagi inson huquqlariga alohida e'tibor qaratish lozim:



2-rasm. Kambag'allikni qisqartirish siyosatini rejalashtirishda inson huquqlari⁷

⁷ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

2-rasmda keltirilgan inson huquqlarini har biriga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, oilada inson sog'lig'ining yomonligi farzandlarning maktabdagi muvaffaqiyatiga, mehnat unumdorligiga, ishsizlikka va ijtimoiy-madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, kambag'allikda yashash to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqqa ta'sirning kuchayishi va sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanishning cheklanganligiga olib kelishi mumkin, bu esa salomatlikni sezilarli darajada buzishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini hozirgi holati”** nomli ikkinchi bobida Xorazm viloyatida oliy ta'lim qamrovining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri va O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida kambag'allik va iqtisodiy o'sish tendensiyalarini ekonometrik tahlili amalga oshirilgan hamda aniqlangan modellar bo'yicha iqtisodiy izohlar keltirilgan.

Hozirgi vaqtda Butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida ham iqtisodiy islohotlar samaradorligining pastligi kambag'allikning tarqalishiga, bandlik inqirozining chuqurlashishiga, inson salohiyatini takror ishlab chiqarishning torayishiga, aholi salomatligi va hayot sifatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida fuqarolarining insoniy, mehnat va intellektual salohiyatini rivojlantirishga tahdid soladi. Jamiyatning asosan bir xildagi tarkibiga ega bo'lgan mamlakatimizda fuqarolarning chuqur kambag'alligi bilan parallel ravishda qisqa vaqt ichida tor doiradagi badavlat va o'ta badavlat kishilar paydo bo'ldi

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, amaldagi ijtimoiy himoya tizimi, ya'ni ijtimoiy yordam va ijtimoiy kompensatsiyalar aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kambag'allikdan qutqarib qolmaydi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari daromadlarini mexanik tartibga solish orqali kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosati tizimli yondashuvga ega emas va faqat qisqa muddatli samara beradi, bu esa davlat byudjetidan katta ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi, lekin kambag'allik miqyosi va uning muammolarini kamaytirmaydi.

Aynan shuning uchun jamiyatni ijtimoiy himoya qilishda oliy ta'lim qamrovini kengaytirish tizimini joriy etish bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida zarur, u ijtimoiy-iqtisodiy xavf-xatarlarga javob berishga qodir va jamiyatning barcha guruhlarida kambag'al aholini kamaytirishga yordam beradi. Keyingi bosqichlarni aniqlash uchun davlat siyosatini takomillashtirish maqsadida matematik modellashtirish va prognozlash usulidan foydalanish zarur.

Ko'rsatkichlarni tanlash uchun ushbu tadqiqotda, O'zbekiston Respublikasining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini – Yr o'zgarishiga ta'sir etuvchi, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya – X_1 , respublikadagi ishsizlik darajasi – X_2 , respublika aholisining yashash minimumi – X_3 , aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 va oliy ta'limga qamrov darajasi – X_5 ko'rsatkichlarini tanlandi. Avvalambor ushbu tanlangan omillar o'rtasida korrelyatsion bog'lanish darajasini tekshiramiz.

Aniqlangan qiymatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, natijaviy Yr-omilga nisbatan respublikadagi ishsizlik darajasi ($r_{Yr, X_2}=0,775718$) kuchli zichlikda to'g'ri bog'langan, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya ($r_{Yr, X_1}=-$

0,62744), respublika aholisining yashash minimumi ($r_{Yr,X3}=-0,70066$), aholi jon boshiga umumiy real daromad ($r_{Yr,X4}=-0,77181$) oliy ta'limga qamrov darajasi ($r_{Yr,X5}=-0,63771$) o'rtachadan kuchli zichlikda teskari bog'langan bo'lib, ushbu omillarni oshirish hisobidan O'zbekiston Respublikasining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Natijaviy omilga ta'sir etuvchi sifatida tanlangan omillar o'rtasida $r_{x1,x2}<0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Tanlab olingan omillarning o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi bois, dastlab omil ko'rsatkichlarini logarifmlab chiziqsiz tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning regressiya tenglamalari natijasi⁸

Dependent Variable: LNYR				
Method: Least Squares				
Date: 09/09/22 Time: 16:04				
Sample: 2000 2021				
Included observations: 22				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNX1	-0.671286	0.202913	-3.308248	0.0044
LNX2	0.077318	0.035615	2.170937	0.0453
LNX3	2.131143	0.586648	3.632743	0.0022
LNX4	-0.267206	0.180647	-1.479161	0.0364
LNX5	-0.101939	0.209032	-0.487673	0.0324
C	-1.509456	1.445744	-1.078653	0.2967
			$T_{jad}=2,119905$	
R-squared	0.949985	Mean dependent var		2.882249
Adjusted R-squared	0.934356	S.D. dependent var		0.344053
S.E. of regression	0.088150	Akaike info criterion		-1.792549
Sum squared resid	0.124327	Schwarz criterion		-1.494992
Log likelihood	25.71804	Hannan-Quinn criter.		-1.722454
F-statistic	60.78131	Durbin-Watson stat		1.884750
Prob(F-statistic)	0.000000	$F_{jad}=0,171112236$		


Jadval ma'lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

$$\ln Y_r = 0.077 \ln X_2 + 2.13 \ln X_3 - 0.67 \ln X_1 - 0.2672 \ln X_4 - 0.1 \ln X_5 - 1.51 \quad (1)$$

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=16$ bo'lgan holda $t_{jad}=2,1199053$ ga tengligidan faqatgina aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya ($t_{x1}=3,308248 > t_{jad}=2,1199053$) hamda respublikadagi ishsizlik darajasi ($t_{x2}=2.170937 > t_{jad}=2,1199053$) respublika aholisining yashash

⁸ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

minimumi ($t_{X1}=3.632743 > t_{Jad}=2,1199053$) ahamiyatli bo'lib, qolgan parametrlarning ahamiyatligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o'rtacha mutloq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o'lchovi) bilan tekshirish talab etiladi (3-rasm).



3-rasm. (1)-regressiya tenglamasining retrospektiv sifat natijalari⁹

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'kidlash mumkinki, MAPE=2,09 bo'lib, bu o'z navbatida MAPE=2,09<10% prognoz aniqligi yuqori va TIC=0,013<1 shartning bajarilishidan aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatligini kelib chiqadi. Matematika qoidalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y_r = \frac{X_2^{0,077} \cdot X_3^{02,13}}{X_1^{0,67} \cdot X_4^{0,2672} \cdot X_5^{0,1} \cdot e^{1,51}} \quad (1^*)$$

Hosil qilingan 1*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatligini $\alpha=0,05$ va $k1=16$; $k2=4$ bo'lganda $F_{Jad}=0,171112236$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=60.78$ tengligidan $F_{Jad} < F_{his}$ shartga binoan 1*-regressiya tenglamasining ahamiyatligini hamda $DW=1,885$ teng bo'lganligi bois, avtokorrelatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 1*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo'lsak, unga ko'ra, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyani 10000 so'mga oshishi kambag'allik darajasini 0.024 foizga kamayishiga olib keladi, aholi jon boshiga umumiy real daromad 10000 so'mga oshishi kambag'allik darajasini 3.62 foizga kamayishiga olib keladi, oliy ta'lim qamrovining 1 foizga oshishi kambag'allik darajasini 0.07 foizga kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, eng avvalo, aholi jon boshiga umumiy real daromadni oshirish va oliy ta'limga qamrov chegaralarini oshirish kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

⁹ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

Ekonometrik tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda aholi jon boshiga daromadni oshirish uchun birinchi, navbatda aholini qo‘shimcha daromad olishga qaratilgan: o‘z tomorqalaridan unumli foydalanish, qishloq va imkoniyati mavjud xonadonlarda chorvachilik, parrandachilikni yo‘lga qo‘yish, aholini imkoniyat chegarasida (davlat tashkilotlarida) ishlashi bo‘yicha mehnat kodeksiga qo‘shimcha kiritish masalalarini ko‘rib chiqish lozim. Oliy ta‘limga qamrov chegarasini oshirish uchun fikrimizcha, yangi xususiy va qo‘shma ta‘lim muasasalarini va joylarda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan nufuzli oliygohlarning filiallarini ochish maqsadga muvofiqdir.

2-ssenariy bo‘yicha biz ijtimoiy sohaga bo‘lgan e‘tiborni kambag‘allikni qisqartirishga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganamiz Buning uchun O‘zbekiston Respublikasining kambag‘allik (kam ta‘minlangan) darajasini – Yr o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi, respublika aholisining pensiya va ijtimoiy yordam oluvchilari soni – X₁, republikadagi ishsizlik darajasi – X₂, respublika aholisining yashash minimumi – X₃, aholi jon boshiga umumiy real daromad – X₄ va oliy ta‘limga qamrov darajasi – X₅ ko‘rsatkichlari tanlandi. Albatta, omillar to‘g‘ri tanlanganligini aniqlash uchun dastlab korrelyatsion koeffitsiyentini aniqlaymiz.

Aniqlangan qiymatlarga ko‘ra, Y_{r2}-omilga nisbatan respublika aholisining pensiya va ijtimoiy yordam oluvchilari soni – X₁ (r_{Yr2,X1}=0,71251) va aholi jon boshiga umumiy real daromad – X₄(r_{Yr2,X4}=-0,77181) o‘rtachadan kuchli zichlikda hamda oliy ta‘limga qamrov darajasi – X₅(r_{Yr2,X5}=0,83829) kuchli zichlikda to‘g‘ri bog‘langan, ishsizlik darajasi – X₂(r_{Yr2,X2}=-0,83833), respublika aholisining yashash minimumi – X₃(r_{Yr2,X3}=-0,80113) kuchli zichlikda teskari bog‘langanligi aniqlandi. Shuni ta‘kidlash joizki, natijaviy omilga ta‘sir etuvchi sifatida tanlangan omillar o‘rtasida r_{x1,x2}<0,8 shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Amalga oshirilgan hisb-kitoblar natijasida qo‘yidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\ln Y_{r2} = 1.22 \ln X_1 + 0.008 \ln X_2 + 0.75 \ln X_3 - 0.44 \ln X_4 - 0.451 \ln X_5 - 6.23 \quad (2)$$

Aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo‘yicha ahamiyatlilikiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, α=0,05 va df=16 bo‘lgan holda tJad=2,1199053 ga tengligidan birorta parametr ahamiyatli emasligini ko‘rish mumkin bo‘lsada, α=0,05 ehtimollik bilan olingan bo‘lib, bu holatda barcha parametrlarning muhimligi kelib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida barcha parametrlarning ahamiyatlilikini retrospektiv sifat mezonlari MAPE va TIC bilan tekshirish talab etiladi.

Keltirilgan ma‘lumotlarga asosan ta‘kidlash mumkinki, MAPE=2,79 bo‘lib, bu o‘z navbatida MAPE=2,79<10% va TIC=0,017<1 shartning bajarilishidan aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatlilikiga kelib chiqadi. Endi olinadigan natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 2-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko‘ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y_{r2} = \frac{X_1^{1,22} \cdot X_2^{0,008}}{X_3^{0,75} \cdot X_4^{0,44} \cdot X_5^{0,451} \cdot e^{6,23}} \quad (2^*)$$

Aniqlangan 2*-regressiya tenglamasini ahamiyatligini $\alpha=0,05$ va $k_1=16$; $k_2=4$ bo'lganda $F_{Jad}=0,171112236$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=36.3$ tengligidan $F_{Jad}<F_{his}$ shartga binoan 2*-regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda $DW=1,96$ teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 2*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo'lsak, unga ko'ra, pensiya va ijtimoiy himoya soni 1000 kishiga oshishi kambag'allik darajasini 0.01 foizga oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida Respublikada ijtimoiy yordam darajasini oshirish aholi o'rtasida boqimandachilikni kelib chiqishiga olib kelayotganligini asoslaydi. Ishsizlik darajasi, yashash minimumi va oliy ta'lim bitiruvchilarining soni 1,0 foizga oshirish hisobidan O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini mos ravishda 0,01 foizga, 0,29 foizga va 0,27 foizga kamaytirish mumkinligi aniqlandi. Aholi jon boshiga umumiy real daromad 10000 so'mga oshishi kambag'allik darajasini 0,59 foizga kamayishiga olib keladi.

Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, eng avvalo, Respublikada aholi jon boshiga umumiy real daromadni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ya'ni, o'z-o'zini band qilish, tomorqa xo'jaliklaridan samarali foydalanish va vaqtinchalik bo'lsada, mavsumiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda oliy ta'lim bitiruvchilarining sonini oshirish hisobidan kambag'allik darajasini kamaytirish mumkin bo'lsada, bu vaqtinchalik bo'lib, u kelgusida ish bilan ta'minlash muammosini ham keltirib chiqaradi.

Endi yuqorida keltirilgan 1-ssenariy bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishi bo'yicha olingan omillardan Xorazm viloyati kambag'allik darajasi – Y_x ni o'zgarishini ta'sir etuvchi, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya – X_1 , iste'mol narxlarini indeksi – X_2 , respublika aholisining yashash minimumi – X_3 , viloyat aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 va oliy ta'limga qamrov darajasi – X_5 omillaridan foydalanamiz. Avvalambor ushbu tanlangan omillar o'rtasida korrelyatsion bog'lanish darajasini tekshiramiz (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsienti¹⁰

	Y_x	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5
Y_x	1					
X_1	-0,74489	1				
X_2	0,683656	0,039499	1			
X_3	-0,85335	0,766072	-0,11557	1		
X_4	-0,85228	0,773418	-0,01765	0,688204	1	
X_5	0,830216	0,571547	0,256348	0,432168	0,412811	1

¹⁰ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

Jadval qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga Y_x – omilga nisbatan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya – X_1 ($r_{y,x,x_1} = -0,74489$), respublika aholisining yashash minimumi – X_3 ($r_{y,x,x_3} = -0,85335$) va viloyat aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 ($r_{y,x,x_4} = -0,77181$) kuchli zichlikda teskari bog'langan, iste'mol narxlarini indeksi – X_5 ($r_{y,x,x_5} = 0,683656$) hamda oliy ta'limga qamrov darajasi – X_5 ($r_{y,x,x_5} = 0,830216$) to'g'ri va o'rtachadan kuchli zichlikda bog'langan bo'lib, ushbu omillarni oshishi hisobidan Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'sishi mumkinligi aniqlandi. Aniqlangan jadval qiymatlariga ko'ra, tanlangan omillar o'rtasida $r_{x_1,x_2} < 0,8$ shartga ko'ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni davom ettirish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning regressiya tenglamalari natijasi¹¹


Dependent Variable: LNYX				
Method: Least Squares				
Date: 09/08/22 Time: 18:23				
Sample: 2000 2021				
Included observations: 22				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
			$t_{jad}=2,119905$	
			3	
LnX_1	-0.019710	0.104686	-0.188274	0.0501
LnX_2	-1.925863	0.432726	-4.450533	0.0004
LnX_3	0.175015	0.405395	0.431714	0.0317
LnX_4	-0.328678	0.106598	-3.083336	0.0071
LnX_5	0.242645	0.171419	1.415511	0.0061
C	13.25596	2.590352	5.024782	0.0001
R-squared	0.973106	Mean dependent var		3.045398
Adjusted R-squared	0.964702	S.D. dependent var		0.502172
S.E. of regression	0.094347	Akaike info criterion		-1.656675
Sum squared resid	0.142421	Schwarz criterion		-1.359118
Log likelihood	24.22343	Hannan-Quinn criter.		-1.586580
F-statistic	115.7870	Durbin-Watson stat		1.896431
Prob(F-statistic)	0.000000	$F_{jad}=0,3505808$		

Jadvalda keltirilgan koeffitsient ustunidagi omillarning ko'rsatkichlaridan foydalangan holda quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$LnY_x = -0,02LnX_1 - 1,93LnX_2 + 0,18LnX_3 - 0,33LnX_4 + 0,243LnX_5 + 13,26 \quad (3)$$

¹¹ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.

Ushbu hosil qilingan (3)-regressiya tenglamasini endi sifat mezonlari bilan tekshiramiz. Unga ko‘ra, $\alpha = 0,05$ va $df = 16$ bo‘lgan holda $t_{Jad} = 2,1199053$ ga tengligidan iste‘mol narxlar indeksini X_2 ($t_{X_2} = 4,450533 > t_{Jad} = 2,1199053$) va viloyat aholi jon boshiga umumiy real daromad X_4 ($t_{X_4} = 3,083336 > t_{Jad} = 2,1199053$) parametrlari ahamiyatli ekanligini ko‘rish mumkin. Qolgan parametrlar ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini MAPE va TIC mezonlari bilan tekshiramiz (4-rasm).



4-rasm. (3)-regressiya tenglamasining retrospektiv sifat natijalari¹²

4-rasmda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, MAPE=2,04 ga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida MAPE=2,04<10% va TIC=0,013<1 shartning bajarilganligidan aniqlangan 3-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatliligi kelib chiqadi. Endi yuqorida ta‘kidlanganidek, 3-regressiya tenglamasini potentsirlab olinadi va unga ko‘ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y_X = \frac{X_3^{0,18} \cdot X_5^{0,243} \cdot e^{13,26}}{X_1^{0,02} \cdot X_2^{1,93} \cdot X_4^{0,33}} \quad (3^*)$$

Hosil qilingan 3*-regressiya tenglamasini Fisher mezoni bilan ahamiyatliligini $\alpha = 0,05$ va $k_1 = 16$; $k_2 = 4$ bo‘lganda $F_{Jad} = 0,171112236$ ga tengligini e‘tiborga olgan holda tekshiramiz. Unga ko‘ra, hisoblangan Fisher qiymati $F_{his} = 24,2$ tengligidan $F_{Jad} < F_{his}$ shartga binoan 3*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda DW=1.896 teng bo‘lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Tadqiqot bo‘yicha aniqlangan 3*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo‘lsak, unga ko‘ra, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va aholi jon boshiga umumiy real daromadni, 1,0 mln. so‘mga oshirilsa, Xorazm viloyati aholisining kambag‘allik darajasi 0,07% va 0,4 % ga qisqartirish mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, agar respublikada iste‘mol

¹² Manba: tadqiqot natijalariga ko‘ra muallif ishlanmasi.

narxlari indeksini 1,0 % ga kamayishi Xorazm viloyati aholisining kambag'allik darajasini 0,3 % ga qisqarishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, viloyatda boqimandachilikka o'rganib qolgan aholi qatlamini ishlashga va daromad topish uchun harakat qilishga olib kelishi bilan izohlanadi.

Endi O'zbekiston Respublikasida 2-ssenariyda foydalanilgan kambag'allikning qisqartirishdagi ijtimoiy holat bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida tanlab olingan omillarni Xorazm viloyatining 2-ssenariysida ham kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini – Y_{x_2} o'zgarishiga ta'sir etuvchi, viloyat aholisining pensiya va ijtimoiy yordam oluvchilari soni – X_1 , viloyatdagi ishsizlik darajasi – X_2 , respublika aholisining yashash minimumi – X_3 , viloyatdagi aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 va oliy ta'lim bitiruvchilarining soni – X_5 ko'rsatkichlarini tanlandi. Albatta, omillar to'g'ri tanlanganligini aniqlash uchun dastlab korrelyatsion koeffitsientlarini aniqlaymiz.

Aniqlangan 6-jadval qiymatlariga ko'ra, Y_{x_2} – omilga nisbatan viloyatdagi aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 ($r_{Y_{x_2}, X_4} = -0,77481$) o'rtachadan kuchli zichlikda va oliy ta'lim bitiruvchilarining soni – X_5 ($r_{Y_{x_2}, X_5} = 0,82583$) kuchli zichlikda to'g'ri bog'langan (4-jadval).

4-jadval

Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsientlari¹³

	Y_{x_2}	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5
Y_{x_2}	1					
X_1	-0,79575	1				
X_2	-0,84761	0,667021	1			
X_3	-0,79564	0,773514	0,615371	1		
X_4	0,77481	0,751192	0,777955	0,690035	1	
X_5	0,82583	0,632095	0,641468	0,773123	0,759445	1

Viloyat aholisining pensiya va ijtimoiy yordam oluvchilari soni – X_1 ($r_{Y_{x_2}, X_1} = -0,79575$), viloyat aholisining yashash minimumi – X_3 ($r_{Y_{x_2}, X_3} = -0,79564$) o'rtachadan kuchli zichlikda va viloyatdagi ishsizlik darajasi – X_2 ($r_{Y_{x_2}, X_2} = 0,84761$), kuchli zichlikda teskari bog'langanligi aniqlandi. Tanlangan omillar o'rtasida $r_{x_1, x_2} < 0,8$ shartga ko'ra multikolleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog'liqlik o'rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni *EViews* dasturi orqali davom ettiramiz (5-jadval).

¹³ Manba: tadqiqot natijalariga ko'ra muallif ishlanmasi.


2-ssenariy bo'yicha Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning regressiya tenglamalari natijasi

Dependent Variable: $LN Y X_2$				
Method: Least Squares				
Date: 09/27/22 Time: 21:30				
Sample: 2000 2021				
Included observations: 22				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
$Ln X_1$	0,319194	0,798135	0,399925	0.0145
$Ln X_2$	0,042565	0,027979	1,521320	0.0335
$Ln X_3$	-0,140206	0,123877	-1,131816	0.0393
$Ln X_4$	-0,155949	0,053789	-2,899273	0.0389
$Ln X_5$	0,462769	0,149092	3,103916	0.0068
C	0,512245	2,742967	0,186749	0.0373
R-squared	0.963187	Mean dependent var		3.045246
Adjusted R-squared	0.951683	S.D. dependent var		0.502255
S.E. of regression	0.110401	Akaike info criterion		-1.342391
Sum squared resid	0.195015	Schwarz criterion		-1.044834
Log likelihood	20.76630	Hannan-Quinn criter.		-1.272296
F-statistic	83.72603	Durbin-Watson stat		1.811444
Prob(F-statistic)	0.000000			

Jadvalda aniqlangan natijalardan kelib chiqqan holda Xorazm viloyatining kambag'allik (kam ta'minlangan) darajasini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning quyidagi regressiya tenglamasini hosil qilamiz:

$$Ln Y_{X_2} = 0,32 Ln X_1 + 0,043 Ln X_2 + 0,46 Ln X_5 - 0,14 Ln X_3 + 0,16 Ln X_4 + 0,512 \quad (4)$$

Aniqlangan (4)-regressiya tenglamasini endi sifat mezonlari bilan tekshiramiz. Unga ko'ra, $\alpha = 0,05$ va $df = 16$ bo'lgan holda $t_{jad} = 2,1199053$ ga tengligidan viloyatdagi aholi jon boshiga umumiy real daromad – X_4 ($t_{X_4} = 2,899273 > t_{jad} = 2,1199053$) va oliy ta'lim bitiruvchilarining soni – X_5 ($t_{X_5} = 3,1039 > t_{jad} = 2,1199053$) parametrlari ahamiyatli ekanligini ko'rish mumkin. Qolgan parametrlar ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini MAPE va TIC mezonlari bilan tekshiramiz (5-rasm).



5-rasm. (4)-regressiya tenglamasining retrospektiv sifat natijalari

